



1991-yildan
chiqa boshlagan

2022-yil. 5-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

9-MAY - XOTIRA VA QADRLASH KUNI



Ushbu sonda



Dolzarb mavzu

Yozuv madaniyatimiz
tarixiga nazar

3
bet



Tahlil

“Saddi Iskandariy”
dostonida me’rojning
badiiy tasviri

14
bet



Tadqiqotlar

Maydon turlari va
assotsiativ maydon xususida

24
bet



Языкознание

Актуальность
семантического
значения слова

51
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot aqalligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2022-yil. 5-son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liq SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.04. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garmiturasi. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 2100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI
jurnali

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Baxtiyor DANIYAROV. Yozuv madaniyatimiz tarixiga nazar 3
Muborak JURAYEVA. Nofilogik yo'nalishdagi bilim yurtlarida ikkinchi chet tili o'qitish: muammolar va yechimlar 5

TARJIMASHUNOSLIK

To'liq SAYDALIYEV. Abdulla Qodiriy falsafiy-axloqiy qarashlarining ruscha tarjimalardagi in'ikosi 7
G'olibjon NURALIYEV. Til birligida taqlid so'zlarning o'rni 10
Shoiraxon SHOKIROVA. Ota mehri chizgilari 12
Ilyos ISMOILOV. "Saddi Iskandariy" dostonida me'rojning badiiy tasviri 14
Sitorabonu ATALLAYEVA. Hikoyachilikda an'ana va mahorat 16
Ikram MAMBETOV. Traditional artistic forms in Karakalpak poetry 17

TILSHUNOSLIK

Dilnoza NAMOZOVA. Phonetic interference in the speech of cadets studying English as a second foreign language 19
Sokhiba SAPAEVA. Realization of time metaphors and cultural implications 21

TADQIQOT

Hamida ORTIQOVA. Maydon turlari va assotsiativ maydon xususida 24
Nozimaxon MAMADJANOVA. Interferentiv kompetensiyani shakllantirishda leksik interferensiyani bartaraf etish yo'llari 26
Shahnoza ALIYEVA. Qisqartma so'zlar derivatsiyasi xususida 28
Ulug'bek YO'LDOSHEV. Nasriy tarjima kompetensiyasi qanday shakllantiriladi? 30
Dildora KAMBAROVA. Chet tili o'qitishda internet veb-saytlari va dasturlardan foydalanish 32
Navbahor MAMATALIYEVA. Ingliz va o'zbek tillaridagi vatan mazmunli aforizmlarning semantik maydoni 34
Nodira QURBONOVA. Ingliz tili "lingua franca" sifatida 35

KICHIK TADQIQOT

Farida SAIDOVA. Sinonim leksemalar izohlaridagi ba'zi darajaviy ishoralar xususida 37
Sharifa NABIYEVA. Ortologik o'quv lug'atlari taraqqiyoti va muammolar 38
Orzigul ABLAKULOVA. Badiiy diskursning milliy o'ziga xosligi 41
Nazira YANGIBAYEVA. O'zbek tilshunosligining o'rganilishida "Maorif va o'qitg'uchi" jurnalining tutgan o'rni 42
Dildora SHARIPOVA. Zoomin komponentli frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlari 44
Parda QURBONOVA. Bayronning "Shilyon tutquni" poemasi tarjimasida vazn, ritm o'zgarishlari 45
Normat YO'LDOSHEV. Cho'lpon she'riyatida vaznlar transformatsiyasi 47

IZ OPIYTA PREPODAVATELYA

Shahnoza XOLMATOVA. Современный подход к изучению грамматики иностранного языка в профессионально-направленном обучении 49

YAZIKOZNAНИЕ

Feruza MAMADALIYEVA. Aktual'nost' semanticheskogo znacheniya slova 51
Feruza KODIROVA. Lingvokulturologicheskie osobennosti tsveta v russkikh frazeologizmax 52
Marjan KAMBAROVA. Lingvostatisticheskii analiz nomina-tsentricheskikh posloviy kazaxskogo yazyka 53
Ramina YAG'FAROVA. Zaimstvovaniya iz uzbeckogo yazyka v sovremennoy molodezhnoy slenge 55
Sardor JABBOROV. Natsionalno-kul'turnye osobennosti gendernoy leksiki v russkom i uzbeckom yazykax 58

MASTERTVO PEREVODA

Kodirjon NOSIROV. «Волчи нежности» и кое-что другое в классе 59
Majja EM, Fazliddin YAKUBOV. Perevodchestvo i perevodcheskaya nauka 62

SLOVARI

Nazira DUSBAEVA. Vazhnost' izucheniya regional'nykh slovarей angliyskogo yazyka 64

NAUCHNYE ISSLEDOVANIYA

Dmitriy POPOV. O struktural'nom vliyaniy russkogo yazyka na uzbeckiy yazyk 66
Baxtiyir GA'FUROV. Issledovanie reklamy meditsinskikh uslug i lekarstvennykh preparatov, prednaznachennykh dlya muzhchin ili zhenshin 69
Timur NIZAMUTDINOV. Problema khudozhestvennogo yavleniya «sena na scene» v tragedii Uilyama Shpekira «Gamllet» 71
Georgiy JAKUPOV. Morfoloogicheskie kharakteristiki kak proyavleniye tipologicheskikh razlichnykh fuzionnykh i aglutinirovuyemykh yazykov 74
Bexruza AKMALOVA. Uspeshnyy PR v krizisnykh situatsiyax: real'nost' ili inscenirovka? 76

FORMY OBUCHENIYA

Xalifa PALIYANOVA. Razlichnyye metody obucheniya grammatike mladshikh shkol'nykh 78

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdi.

Sitorabonu ATAULLAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti o'qituvchisi

HIKOYACHILIKDA AN'ANA VA MAHORAT

(ingliz, rus va o'zbek adiblari asarlari misolida)

Yer yuzida ko'plab millat va elatlar yashaydi. Har bir millatning o'z an'anasi, mentaliteti va o'ziga xos dunyoqarashi bor. Agar biror xalqning dunyoqarashi yoki mentaliteti bilan tanishmoqchi bo'lsak, albatta, shu xalqning adabiyotiga murojaat qilamiz, chunki yozuvchi-shoirlari o'z asarlarida xalqlari qadriyatlarini aks ettiradilar. Shu boisdan har bir millat adabiyoti o'ziga xos. Lekin turli millat vakillari tomonidan yaratilgan asarlarda ham mutanosiblik ko'zga tashlanadi. Ingliz yozuvchisi Ketrin Mensfild, rus yozuvchisi A.Chexov va o'zbek adibi Abdulla Qahhor ijodiga shu nuqtayi nazardan yondashib ko'raylik.

Ketrin Mensfild yangi zelandiyalik yozuvchi, o'z davrida hikoya janri rivojiga ulkan hissa qo'shgan. U mazkur janrda ijod qilgan ekan, turli xalqlar yozuvchilari an'analarini o'rgangan, tajribalarini yanada takomillashtirib, davom ettirgan. Ayniqsa, bu borada unga Chexov ijodining adabiy ta'sirini ta'kidlab o'tish lozim: "Muhimi shundaki, Mensfild ingliz adabiyoti an'anasiga ko'ra batafsil yozilishi mumkin bo'lgan bu hikoyaning qisqa jumalarda yozilishiga e'tibor beradi. Har qalay, bu usul uning asarlari uchun qimmatli bo'lgan va bu hodisa A.Chexovning adabiy ta'siri bois yuz bergan". [1]

Ketrin Mensfildni zamondoshlari "ingliz Chexovi", deb atashgan. Zero, uning ayrim hikoyalarida Chexovning adabiy ta'siri yaqqol namoyon bo'ladi. Adiba ijodida turli tomondan mutanosiblik ko'zga tashlanadi. Bu holni ba'zan mavzu, ba'zan g'oyada va asar mohiyatiga aloqador boshqa jihatlarida kuzatish mumkin. Masalan, uning "Navnihol gubernantka" hikoyasida yoshgina qizning yolg'iz tungi poyezdda Angliyadan Germaniyaning Myunxen shahriga enagalik qilish uchun o'tlanishi bilan boshlanadi. Qizning yolg'iz o'zi ketayotgani bilan bog'liq xavotirlar, o'y-kechinmalari, tuyg'ulari mahorat bilan tasvirlangan. Qo'rquv va xavotir ichida ketayotgan lediga qari bir chol hamrohlik qiladi. Avvaliga, ledi unga shubha bilan qaraydi. Keyinchalik, bolalarcha beg'uborligi tufayli cholni xuddi o'z bobosidek hurmat qila boshlaydi, afsuski, unga ishonadi ham. Myunxenga yetib borgach, chol qizni shahar bo'ylab aylantiradi va uyiga olib borib qabih rejasini amalga oshirmoqchi bo'ladi. Qiz cholning uyidan qochib chiqadi, ammo qizning ishonchi poymol bo'lgan edi. U cholga ishonib katta xato qilganini anglab yetadi. Hikoyada hayot dahshati, inson axloqidagi chirkin illatlar, yosh qizning bolalarcha beg'ubor qarashlarining chilparchin bo'lgani ishonchli va ta'sirchan tarzda ko'rsatib berilgan.

Asarda yozuvchi hayotda mavjud beg'uborlik, ko'ngil tozalik va samimiyligni yolg'on, firibgarlik va qalloblikka zid qo'yadi. Ana shu kontrast ijodkorning adabiy maqsadini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayotda nur va soya bir-biri bilan bog'liq – soya bor ekan, nurning yorug'ligini, uning qadriini, afzalligini his etamiz.

Adibaning ikki qutbni – hayotning ijobiy va salbiy jihatlarini qarama-qarshi qo'yib tasvirlashdan maqsadi ham xuddi shu o'rinda namoyon bo'ladi. U o'quvchiga hayotning g'animatligini, uni qadrlashni va umrni faqat ezgulik yo'lida sarflash lozimligini uqdirmoqchi bo'ladi. Chunki yomonlik ro'parasida turgan ezgulik, zulmat (dahshat) qarshisida turgan yorug'lik o'quvchi tasavvurida aniq-tiniq bo'y ko'rsatadi. Ketrin Mensfild hikoyadan xulosa chiqarmaydi, "dahshat"ning nimaligi haqida gapirmaydi. Bu boradagi mushohadani o'quvchining o'ziga qoldiradi.

Chexovning "Dahshat" hikoyasi sujeti, voqealar rivoji bilan yuqoridagi hikoyadan tubdan farq qiladi. Ammo har ikkala asarning o'zaro mutanosib jihatlar ham bor. Bu asarlar mazmuni va g'oyasining mushtarakligida namoyon bo'ladi.

Chexov hikoyasida ham hayot dahshati, inson axloqidagi kemtiklik asar qahramoni Dmitriy Petrovich Silin obrazi orqali ifodalangan. Asardagi qo'rquv tasviri qahramonning irodasizligini ko'rsatishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, unga nisbatan vijdonsizlik va xiyonat qahramonning yaqin insonlari, ya'ni do'sti va xotini tomonidan amalga oshiriladi. Ammo Silin o'zini asar davomida xuddi shu voqealarni kutgandek tutadi. Chunki u do'stiga odamlardan qanchalik qo'rqishini, xotini sevmasligini, hayotning o'zi dahshat ekanligini ishonch bilan aytib beradi. Do'sti esa Silinning oqizligidan foydalanadi va uning xotini bilan xiyonatga bosh qo'shadi. Hikoya yakunida Silin barchasini tushunib yetganini uning do'stiga aytgan oxirgi gaplaridan bilib olinishi mumkin: "Hech narsani tushunmaslik mening peshonamga bitilgani ehtimolga yaqin. Agar siz nimanidir tushunsangiz, unda... sizni tabriklayman. Mening ko'z oldim qop-qorong'u". [2]

Hikoya qahramonining fojiasi uning hayot qiyinchiliklari oldida oqizligi, so'qirligi, irodasizligi, yo'lida uchragan muammolarga qarshi kurashmay ko'z yumib ketaverishi, taslim bo'lishi bilan dalillangan. Manfur kim-salarning esa, qay darajada tubanlikka qodir ekanliklari ham o'z ifodasini topgan. Chexov bu hikoyani yozganda, albatta, o'z xalqi mentalitetidan kelib chiqqan. "Dahshat" va "Navnihol gubernantka" hikoyalarining mutanosib tomoni shundaki, har ikkala asarda ham qahramonlarning ishonchi poymol etiladi. Ular, aslida, shundan qo'rqishar edi.

O'zbek yozuvchisi Abdulla Qahhor ham hikoyalardan birini "Dahshat" deb nomlagan. Bu asarida adib qo'rquv haqida yozadi. Ammo u mazkur mavzuga boshqa tomondan yondashadi. Qahhorshunos M.Sultonova

o'tgan asrning 60-yillari o'talarida bildirgan fikricha, "Yozuvchi "Dahshat"da o'tmish temasi ishlatar ekan, asosan, bir maqsadni – o'tmishda insonning ezilishi, insonlik huquqlarining poymol etilishini ko'rsatishni; yozuvchi sinflarga nisbatan cheksiz nafrat va shu bilan erkin zamonamizni yanada qadrlash hissini uyg'otishni nazarda tutadi". [3]

Adib o'tmishda ayollar taqdiri qanchalik og'ir bo'lganini hikoya qahramoni Unsin timsolida ko'rsatib beradi. Unsin Olimbek dodxohning sakkizinchi xotini bo'lib, bunday qismatdan qutulish uchun hamma narsaga tayyor edi. U dodxoh bilan shartlashadi: Unsin tunda qabristonga borib, choy qaynatib kelishi lozim. Shundagina dodxoh unga o'z uyiga ketishiga ruxsat berishga va'da qiladi. Qabristonga tunda borish qanchalik qo'rqinchli bo'lmasin, Unsin qaramlikda, tutqunlikda yashagandan ko'ra mana shu dahshatni afzal ko'radi.

Taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning fikricha, Abdulla Qahhor ushbu hikoyani yozishda xalq ichida yurgan bir rivoyatni asos qilib olgan. Bu rivoyatga ko'ra, bir yigit qabristonga borib, qabrga pichoq sanchib kelishi kerak bo'ladi. Ammo u pichoqni etagi bilan qo'shib sanchadi va, oqibatda, qo'rquvdan jon taslim qiladi.

Yozuvchi bu rivoyat asosida juda ta'sirli hikoya yozgan. Hikoyaning ta'sirchanligi shundaki, unda bosh qahramon ozodlikka erishish uchun jon taslim qilishdan ham qo'rqmaydi. Ha, u jismonan nobud bo'ladi, ammo ruhan ozodlikka erishadi.

A.Qahhorning "Dahshat" hikoyasini Chexovning "Dahshat" hikoyasi bilan solishtirib aytish mumkin, Chexov hikoyada qahramonining qo'rquvga qarshi kurashmagani, hayot mashaqqatlari oldida o'zligini

ifodalagan bo'lsa, Abdulla Qahhor Unsinning dovyurakligini, erk uchun o'zidagi qo'rquvni yengib, hatto joni qurbon qilishga ham tayyorligini mahorat bilan tasvirlab bergan. Shu o'rinda filologiya fanlari nomzodi G.T.Garipovning bu ikki hikoya haqidagi ayrim fikrlarini keltirib o'tsak: "Chexov ijtimoiy-ruhiy determinizmning quyidagi tartibini qo'llaydi: "araz – anglashilmovchilik – qo'rquv – erksizlik". A.Qahhor A.Chexovdan farqli ravishda, falsafiy va ijtimoiy-ruhiy determinizmning bir-muncha boshqacha tizimini yaratadi: "erksizlik – tutqunlik qo'rquvi – o'lim qo'rquvi – o'lim". Qahhor qahramoni, u jismonan o'lsa ham, ruhan tantana qiladi, chunki u o'sha qo'rquvni yengib o'tadi. U eng asosiy narsaga – Chexov "Dahshat"idagi qahramon hech qachon erishmaydigan ozodlikka erishadi". [4]

Har bir yozuvchi o'z asarini turli maqsadda yozishi mumkin. Masalan, ayrim yozuvchilar o'z o'quvchilariga asaridagi qahramonlar xatti-harakatlaridan ibrat olish, hayotda unga o'xshab yo'l tuta bilish lozimligini uqtirsa, ayrimlari, aksincha, o'z qahramonining xatolaridan xulosa chiqara olishga, uning kamchiliklarini takrorlamaslikka da'vat sifatida asar yaratadi.

Ketrin Mensfild va A.Chexovning yuqorida qiyoslangan hikoyalarini o'quvchilar o'qib, asar qahramonlarining xatolaridan xulosa chiqarish va ularni o'z hayotida takrorlamasliklarini ko'zda tutishgan. Abdulla Qahhor esa, "Dahshat"ni qahramonining fidoyiligini ko'rsatish uchun, undan ibrat olish kerakligini uqtirish uchun yaratgan.

Xulosa qilib aytganda, uchala yozuvchi ham o'z hikoyalarini mahorat bilan, ta'sirchan yozgan. Shu boisdan ushbu hikoyalar bugungi kunda ham adabiyot ixlosmandlari tomonidan sevib o'qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Володарская Л. Менсфилд К. и ее рассказы / Кетрин Менсфилд. Рассказы / Перевод с англ. – Москва: Книга, 1989. – С. 13.
2. Чехов А.П. Страх / А.П.Чехов. Рассказы. – Москва, 1992. – С. 357.
3. Quronov D. Ilhom bilan yozilgan asar // "Jahon adabiyoti" jurnali, 2007, № 5.
4. Гарипова Г.Т. Сравнительный анализ рассказов А.Чехова «Страх» и А.Каххара «Страх» // Преподавание языка и литературы, 2012, № 8. – С. 40.

Ikram MAMMETOV,

*Karakalpak State University named after Berdakh,
PhD in philological sciences*

TRADITIONAL ARTISTIC FORMS IN KARAKALPAK POETRY

Karakalpak poetry has gone through several stages in its development. If at first it functioned on the basis of the folklore tradition, then classical poets conducted additional searches in the field of form. In the transmission of the content of the work, the form chosen for it plays a certain role. In the poems by A. Begimov, Kh. Akhmetov, D. Nazbergenov, J. Aymurzaev, we can see the circle of influence of this size. The Karakalpak poets did not immediately come to this size. Although they

wrote their poems in a new direction based on a new way of "breaking" the lines a lot of these poems in principle have a syllabic size.

In Karakalpak poetry until the twentieth century, there were mainly forms of term and 7-8-complex poetic forms, and in the twentieth century they were replaced by new active forms that came from written Turkic-language literatures. The search for Karakalpak poets in the field of forms, types of stanzas and rhymes